# G’AZALXON ONAXON

* Qishloqlarda oilasidan baxt topgan oqila, ijodkor, g’azalxon xotin-qizlar ko’p. Shulardan biri Rishton tumani Qoshqayron mahallasida yashovchi Bioysha aya Saidovadir. Onaxon turmush o’rtog’i Zaylobiddin aka bilan 45 yil baxtli hayot kechirib, 5 farzandni oliy ma’lumotli, uyli-joyli qilishdi. Ularni mahalla ahli “g’azalxonlar oilasi” deyishadi.

 Bugun ham onaxon bizga Navoiyning “Kelmadi” radifli g’azali va tojik shoiri Mirzo Tursunzoda qalamiga mansub “Vodii Hisor” she’rini yoddan o’qib berdi.

????- Adabiyot, she’riyat jonu dilim, - deydi B.Saidova, - Oilamizda o’zbek va tojik tillarida mushoira qilib, nabiralarimga ham ijodkorlarning sirli olami haqida so’zlab beraman.

2022-10-13 16:46:58